



UDK:81'373.2

*Яунарбек АБЛАКУЛОВ,*

*f.f.n., dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*O'zMU professori M.Kurbanova taqrizi asosida*

### ONOMASTIK BIRLIKLAR VA ULARNING TADQIQI XUSUSIDA

Аннотация

Ushbu maqolada onomastik birliklarni sotsiologiyaviy tadqiq qilish nimalarda ko'rinishi, bunday birliklarning paydo bo'lishi, jamiyatning kommunikativ ehtiyoji, sotsial omillar bilan zich bog'liqligi, shuningdek, sotsiologiyaviy tadqiqotlar orqali tilning sinfiy, tabaqaviy tarmoqlanishi, moslashuvini aniqlash mumkinligi haqida gap yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Onomastik birlik, sotsiologiyaviy tadqiq, dokumentonimlar, ideonimlar, politonimlar, sotsiologiya, psixologiya, etnologiyaviy tadqiq, psixologiyaviy tadqiq, etnomadaniyat, tarixshunoslik.

### ОНОМАСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ВОПРОСЫ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается, что из себя представляет социолингвистическое исследование ономастических единиц, возникновение таких единиц, коммуникативные потребности общества, их тесная связь с социальными факторами, а также возможность определения разветвления языка по классам и уровням, адаптации посредством социолингвистического исследования.

**Ключевые слова:** Ономастическая единица, социолингвистика, социолингвистическое исследование, документонимы, идеонимы, политонимы, социология, психология, этнолингвистика, психолингвистика, этнокультура, историография.

### ONOMASTIC UNITS AND THE STUDY OF THEM

Annotation

This article discusses what a sociolinguistic study of onomastic units looks like, the emergence of such units, the communicative needs of society, their close relationship with social factors, as well as the possibility of class definition, stratification and language adaptation through sociolinguistic research.

**Key words:** Onomastic unit, sociolinguistics, sociolinguistic research, documentonyms, ideonyms, polytonyms, sociology, psychology, ethnolinguistics, psycholinguistics, ethnoculture, historiography.

**Kirish.** Onomastik birliklarni sotsiologiyaviy tadqiq qilish ushbu tip leksemalarning mohiyatidan yaratilishi va vazifalaridan kelib chiqadi. Bunday tadqiq jamiyat bilan til orasidagi munosabatni, ya'ni til rivojida jamiyatning, ijtimoiy hayot, sotsial va siyosiy tuzumning ta'sirini, aksincha tilning jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotida til omilining o'rnini belgilash imkon beradi.

Tilga ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish o'z mohiyatiga ko'ra, sotsiologiya, psixologiya, etnologiyaviy tadqiq, psixologiyaviy tadqiq, etnomadaniyat, tarixshunoslik bilan yaqinlashadi, o'sha sohalar erishgan ilmiy yutuqlarga tayanadi.

Onomastik birliklarni sotsiologiyaviy tadqiq qilish nimalarda ko'rinadi? Avvalo, har qanday atoqli otning paydo bo'lishi, jamiyatning kommunikativ ehtiyoji, sotsial omillar bilan zich bog'liqdir. Jamiyat hayoti, kishilarning ehtiyoji talab qilinayotgan qayta tiklashga harakat qiladi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mana shunday bo'ldi. Eski sho'roviy tuzum davrida paydo bo'lgan joy nomlari yangi, mustaqil o'zbek xalqi intilish va orzulari bilan mos nomlarga almashtirildi, unytilishga mafkum bo'lgan ko'pgina tarixiy nomlar qayta tiklandi. Nomlarning imlosi davlat tiliga o'tkazildi, toponimlarni davlat o'z muhofazaga oldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'lumki, har qanday til ijtimoiy (sotsial) jihatdan tarmoqlangan bo'ladi: adabiy til, xalq lahja va shevalari, kasb-hunar sohalar tili, ba'zi kasbiy argolar, jargonlar mana shu tarmoqlanish tufayli asrlar davomida shakllanadi va o'z xususiyatiga ega bo'la beradi.

Tilning ijtimoiy tarmoqlanishi umuman til tizimiga, jumladan, atoqli otlarning xususiyatlariga ham ta'sir qiladi. Bunga yorqin misol o'zbek tilidagi atoqli otlarning hududiy jihatdan farqlanishidir. Ba'zi ismlar atoqli ot tilda mavjud emas. Masalan, toponimlar nafaqat biror joyni o'zga joylardan farqlashga, balki o'sha joyni boshqa qo'shni joylardan farqlashga xizmat qiladi, o'sha joyni oson topishga imkon beradi.

Tildagi atoqli otlarning paydo bo'lishi, har nomning berilish motivi sotsial omillar bilan bog'liq. Masalan, ideonimlar, politonimlarning motivativ asoslarini davlat tuzumi, siyosiy qarashlar belgilaydi. Har bir tuzum, davlat o'z manfaati, siyosati, mafkuraviy g'oyasiga mos keladigan nomlarni yaratadi. Bunga yorqin misol o'rta Osiyoni arablar bosib olgach, o'zbeklarga ism berish udumlarining islom dini talablariga moslangani, sobiq Turkiston hududining Chor Rossiyasi istilo qilgach, aksiliy joy nomlarining ruscha nomlana boshlaganini keltirish mumkin.

Har qanday mutelik, qaramlikda yashagan xalq ozodlikka erishgach, o'zligi asosiga qaytishga, tili va uning lug'aviy mamjumiga milliy an'ana va ruh asosida biror hudud uchun xos bo'lsa, faol bo'lsa, boshqa hudud uchun tipik emas. Masalan, qipchoq shevali aholi ismlari Xorazm shevasidagi ismlardan farqlanadi. Ba'zi hududga oid toponimlar yoki toponimik indikatorlar boshqa hududlarga xos emas. Mana shunday hol, ayniqsa, o'zbek ismlarining qisqarish shakllarida yanada yorqin ko'rinadi.

Qayd qilinganlarning barchasi tarixiy va ijtimoiy omillar tufayli yuz beradi. Shu sababli ham ba'zi

tadqiqotchilar sotsiologiyaviy jamiyatning til rivojiga ta'sirini o'rganish kerak, deb hisoblashadi.

Sotsiologiyaviy tadqiqotlar orqali tilning sinfiy, tabaqaviy tarmoqlanishi, moslashuvini ham aniqlash mumkin. Bu hol o'tmishda hukmron tabaqa va oddiy xalq ismlaridagi farqlarda, sotsial titil va mansablar nomida, oddiy xalqqa berilgan laqab-ismlarning motiv va ma'nolarida aniq ko'rinadi.

Sotsial lingvistikaning tadqiq obyektiga o'zbek tiliga o'zbek tillardan so'z, jumladan, atoqli otlarni o'zlashtirish jarayonlari, buning sotsial, tarixiy omillarni o'rganish ham kiradi. Masalan, o'zbek tiliga fors-tojik tili, arab tili, keyinchalik rus tili va u orqali boshqa tillardan atoqli otlarning o'zlashishi. Buning ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy sabablarini ochish bilan ijtimoiy tilshunoslik shug'ullanadi. Bunday o'zlashmalar zo'rlik va zug'um ostida yoki uzoq davr tarixiy va qo'shnihilik hamkorligi tufayli yuz bergan bo'lishi mumkin.

Ba'zi tadqiqotlarda onomastika bilan sotsiologiyaviy o'rtasidagi munosabat tadqiq qilinadi. Bunday munosabat, ayniqsa, dokumentonimlar, geortonimlar (ijtimoiy-siyosiy, madaniy ahamiyatga molik bayram va tadbirlar nomi), gemeronimlar (matbuot organlari va ular mahsulotining atoqli oti), politonimlar (davlat ramzlari atoqli oti), faleoronimlar (ko'krak nishonlari, orden va medallar nomi) nomida aniq ko'rinadi.

Geortonimlar. Insoniyat jamiyati juda qadimlardan ma'lum kun-larni, oylarni, yillarni yoki tabiatdagi o'zgarish bilan bog'liq hodisalar yuz bergan vaqt, paytni, sig'iniluvchi, xosiyatli deb hisoblanuvchi fasllar, hodisalarni alohida xursandchilik, rasm-rusmlar, marosimlar bilan nishonlagan. Odatda, bayram qilinuvchi voqea-hodisalar, ularning vaqti vamuqdatlari ana shunday boshqa tushunchalardan farqlangan. Bunda ikki tomon bor: 1) bayram qilinuvchi kun, oy, yil, voqeani boshqa ana shunday oddiy kun, oy va yillardan farqlash; 2) bayram va marosimlarni bayram va marosimlardan farqlash. Mana shu ikki ehtiyoj bayram va mo'tabar kunlarga maxsus nom qo'yishni talab qilgan.

Bir qator bayram, rasm-rusmlar, marosimlar iste'moldan chiqib unutilgan bo'lsa-da, ularning nomi xalq xotirasida uzoq yashagan, yozma bitiklar tilida va boshqa xil manbalarda saqlanib qolgan. Chunonchi, "Avesto"da fasllar, dehqonchilik, chorvachiliklarga aloqador turli bayramlar nomi tilga olingan. "Maidiyoq – zaremaya" ("Bahor o'rtasi"), "Maidiyoq shema" ("Yoz o'rtasi"), "Papyishaxya" ("G'alla o'rini" bayrami), "Ayayrima" ("Chorvaning otarlarga qaytishi"), "Maidiyoq" ("Qish o'rtasi"), "Xamaspat moeday" ("Noma'lum bayram").

Bayramlar va boshqa xil marosimlar atoqli oti geortonim (yunoncha georto- bayram + onoma – atoqli ot) deb yuritiladi.

O'zbek tilidagi geortonimlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1) siyosiy bayramlar nomi: Mustaqillik bayrami, Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni (8- dekabr), Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni (31 avgust), Xotira va qadrlash kuni (9- may), Xotin-qizlar bayrami (8 mart), Xalqaro tinchlik kuni (15- sentabr), Xalqaro qariyalar kuni (1- oktabr), Xalqaro Birlashgan Millatlar tashkiloti kuni (24- oktabr), Butunjahon yoshlar kuni (16 noyabr), Xalqaro nogironlar kuni (3-dekabr); 2) kasb-hunar xodimlari bayramlari nomi: Vatan himoyachilari kuni (14- yanvar), Xalqaro teatr kuni (27- mart), Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni (12- aprel), Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni (27- iyun), O'zbekiston Respublikasi Harbiy Havo Floti kuni (avgustning 3-kuni), Jurnalistlarning xalqaro birdamlik kuni (8 sentyabr), O'qituvchilar va murabbiylar kuni (1- oktabr), Xalqaro talabalar kuni (17- noyabr); 3) fasliy va mavsumiy bayramlar

nomi. Fasliy va mavsumiy bayramlar va ularni nishonlash juda qadimiy udumlar sirasiga kiradi. Buning yorqin guvohi "Avesto"da qayd qilingan bayramlarga oid ma'lumotdir. Unga ko'ra, gahinbar yoki gahanbar Ahura Mazdaning olti xilqat (yaratilish) bayramlari yil davomida nishonlangan. Chunki mazdaparastlar ishonchiga ko'ra Ahura Mazda olamni bir yil davomida yaratgan bo'lib, u olti jarayonni o'z ichiga oladi: a) birinchi gahanbar: "Maydyuzarkm" – osmonning yaratilishi; b) ikkinchi gahanbar: "Miydyusham" – suvning yaratilishi; v) uchinchi gahanbar: "Patya Shhim" – zaminning yaratilishi; g) to'rtinchi gahanbar: "Ayosrim" – giyohlarning yaratilishi; d) beshinchi gahanbar: "Miydyorm" – jonivorlarning yaratilishi; e) oltinchi gahanbar: "Hamaspatmadam" – insonlarning yaratilishi".

Fasliy va mavsumiy bayramlar nomi: Yangi yil bayrami, Navro'z bayrami.

Mavsumiy bayramlar: Sumalak sayli, Boychechak sayli, Ekin sayli, Chuchmoma sayli, Lola sayli, Qizilgul sayli, Sumbula sayli, Bog' sayli, Tut sayli (bahor mavsumiga oid); Suv sayli, Gilos sayli, Gul sayli, Tog' sayli, Qum sayli (yoz mavsumiga oid); Mehrjon, O'rik sayli, Olma sayli, Uzum sayli, Anjir sayli (kuz mavsumiga oid); Birinchi qor, Yaldo kechasi (qish mavsumiga oid) va b.

Ba'zi adabiyotlarda gap yuritilayotgan fasliy bayramlarni to'rt faslga qarab tasniflash uchraydi. Chunonchi: "Navro'z", "Loy tutish", "Ish boshi", "Urug' qadash", "Birinchi shudgor", "Lola sayli", "Qizil gul" (bahor fasli bayramlari), "Oxirgi tutam" (bug'doy), "Choy momo", "Gul bayrami" (yoz fasli bayramlari), "Marjon", "Qovun sayli", "Shamol chaqirish" (kuz fasli bayramlari), "Birinchi qor", "Qor xat" (qish fasli bayramlari) kabi; 4) diniy bayramlar nomi: Ro'za hayit, Qurbon hayit, Laylat ul-qadr kechasi, Me'roj yoki Rajab bayrami; 5) umumdavlat ahamiyatiga molik ba'zi tadbirlar nomi: "Amir Temur yili" (1996), "Inson manfaatlari yili" (1997), "Oila yili" (1998), "Ayollar yili" (1999), "Sog'lom avlod yili" (2000), "Ona va bola yili" (2001), "Qariyalarni qadrlash yili" (2002), "Obod mahalla yili" (2003), "Mehr va muruvvat yili" (2004), "Sihat-salomatlik yili" (2005), "Homiyar va shifokorlar yili" (2006), "Ijtimoiy himoya yili" (2007), "Yoshlar yili" (2008), "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" (2009), "Barkamol avlod yili" (2010), "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" (2011), "Mustahkam oila yili" (2012), "Obod turmush yili" (2013), "Sog'lom bola yili" (2014), "Keksalarni e'zozlash yili" (2015), "Sog'lom ona va bola yili" (2016), "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" (2017), "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" (2018), "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" (2019), "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" (2020), "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" (2021), "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" (2022), "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" (2023), "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" (2024); 6) bayram tusida o'tkaziluvchi san'at, ijodga, sportga oid tadbirlar (festivallar, musobaqalar, ko'rik-tanlovlar va b.) atoqli oti: "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Sanamlar sarvari" ko'rik-tanlovi, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali. Gameronimlar. Matbuot organlari, ular tayyorlab nashr etadigan bosma mahsulotlar atoqli oti onomastikada gemeronim deb yuritiladi. Bu termin yunoncha guepa – kun, sutka ma'nosidagi so'zga onoma – atoqli komponenti qo'shib yasalgan. Bunda mahsulotning tayyorlanib, nashr etilish muddati ko'zga tutilganga o'xshaydi. Gameronimlar tarkibiga gazeta, jurnal, almanaxlar, axborotnomalar, albomlar atoqli oti kiradi.

Ma'lumki, O'zbekistonda gazeta va jurnallar XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan chiqa boshlagan. Hozirda O'zbekistonda ko'p sonli gazeta, jurnallar va boshqa matbuot

organlari mavjud. O'zbek tilida mavjud gemeronimlarni quyidagicha tasniflash mumkin: a) gazeta nomlari: "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "Hurriyat", "Milliy tiklanish", "Turkiston", "Ma'rifat", "Ishonch", "Mulkdor", "Fidokor", "Adolat", "Huquq" va b.; b) jurnallar nomi: "Fan va turmush", "O'zbek tili va adabiyoti", "Saodat", "Gulxan", "Tafakkur", "Yosh kuch", "G'uncha", "Sirlil olam", "Jahon adabiyoti", "Muloqot", "Sanam" va b.; v) radio va televideniening telekanal va teleeshittirishlari nomi: "O'zbekiston" telekanali, "Assalom, O'zbekiston", "YOshlar" teleradiokanali, "Sport telekanali", "Toshkent" telekanali, "Bekat", "Hidoyat sari", "Axborot", "Davr", "Poytaxt", "Hudud", "YAxshi kayfiyat", "So'g'diyona", "Azizim", "Tarannum", "CHempion", "O'ylarim", "Erkin fikr", "Ardoq", "Oydin hayot", "Muruvvat", "Avtopatrol" va b.; g) axborot agentliklari nomi: "O'zbekiston Milliy axborot agentligi", "Jahon axborot agentligi", "Turkiston – press" nodavlat axborot agentligi va b.

Politonimlar. Politonimlar termini yunoncha politeia - palis – davlat ishlari + onoma – atqli ot qo'shilishidan yasalgan bo'lib, onomastika sohasida bu tushuncha tarkibiga davlatning ramzlari – bayroq, gerb, tamg'a, emblema va boshqa xil atributlari atqli oti kiradi. Masalan: O'zbekiston bayrog'i, O'zbekiston madhiyasi, O'zbekiston gerbi. Mana shu tip nomlar biror davlatning yakka (bir dona) ramzining nomi bo'lgani uchun, uni boshqa davlatning ana shunday ramzlaridan farqlashga xizmat qilgani uchun atqli ot turkumiga kiradi.

Umuman, davlat va davlat siyosati bilan aloqador bo'lgan ba'zi tushunchalar va ular nomini ham, shartli ravishda, politonim guruhiga kiritish mumkin. Bular onomastikada faleronim va dignitonim deb yuritiluvchi nomlar hamda tarixiy urushlar va u bilan bog'liq tushunchalarning atqli otlaridir.

Faleronimlar. Faleronimlar termini lotincha phalera – ko'krak nishon, taqinchoq so'zini anglatadi. Qadimgi Rimda o'z botirligi, jasurligi bilan alohida ajralib turgan legionlarga beriladigan ko'krak nishonini anglatgan. Faleronim termini mana shu so'zga onoma – atqli ot tushunchasini anglatuvchi qismni qo'shib yasalgan.

Onomastikada faleronimlarga bag'ishlangan adabiyotlar deyarli yo'q darajada. Mavjud lug'atlarda faleronimga orden, medal, ko'krak nishonlari va boshqa xil ayirg'ich belgilar atqli oti kirishi aytiladi va shunday ta'riflanadi: "Faleronimlar – har qanday orden, medal, ko'krak nishoni va sh.k. atqli oti".

A.V. Superanskayaning fikricha: "Faleronimlar gemeronimlarga yaqin turuvchi, faleronimlar mukofotlar, ordenlar nomi bo'lib, muayyan g'oya bilan bog'liqdir hamda yakka nusxada emas, balki seriyali holda realizatsiya qilinadi".

Faleronimlarga qiziqishning kam bo'lgani va etarli tadqiq qilinmagani, bizning nazarimizda, avvalo ushbu mukofot vositalarining miqdoran aniqligi, motivining ma'lumligi, qolaversa, mukofot vositalarining ijtimoiy tuzum, siyosat o'zgarishi bilan o'zgarib, unutilib turishi hollari bilan aloqador bo'lishi kerak. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq sho'rolar davrida ta'sis qilingan ko'pgina orden, medal, ko'krak nishonlari va b. nomining o'zgargani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Faleronimlar tarkibiga ba'zi xalqaro mukofotlar (Nobel mukofoti) va milliy davlat mukofotlarining nomini ham kiritish mumkin. O'zbek tilining faleronimlari quyidagilardan iborat:

1. Ordenlar nomi: "Mustaqillik" ordeni, "Amir Temur" ordeni, "Jaloliddin Manguberdi" ordeni, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "El-yurt xizmati" ordeni, "Mehnat shuhrati" ordeni, "Do'stlik" ordeni va b.

2. Medallar nomi: "Oltin Yulduz" medali, "Jasorat" medali, "Shuhrat" medali.

3. Ko'krak nishonlari: "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan murabbiy" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan paxtakor" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi" ko'krak nishoni, "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" ko'krak nishoni kabi.

**Xulosa.** Sotsial omillar tilda yangi atqli otlarning paydo bo'lishiga turtki, asos bo'lsa, o'z navbatida, ular onomastik leksikani boyitadi. Paydo bo'lgan atqli otlar sotsial omillar bois bo'lgan tushunchalarni ifodalab, ularning kommunikatsiya jarayonida tushunarli bo'lishiga ko'maklashadi. Mana shu hol ijtimoiy munosabat va omillar bilan til orasida munosabatni ifoda qiladi. Mana shu munosabatning ko'pqirrali tomonlarini tadqiq qilish sotsiolingvistikaning (tilning mohiyatiga ijtimoiy va lisoniy nuqtai nazardan yondashishning) ilmiy obyektidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.
2. Begmatov E. Antroponimiyani tadqiq qilishning sotsiolingvistik aspekti // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. 4-son.
3. Бондалетов В.Д. Вондалетов. Социальная лингвистика. – М., 1987.
4. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии – М.: Наука, 1988.
5. Социоллингвистический аспект имени собственного (обзор). – М., 1984.
6. Суперанская А.В. Аппеллятив-онима/ Имя нарицательное и собственное. – М.: Наук. 1978.